

MIGRANTLARNING HUQUQIY IJTIMOYILASHUVI MASALALARI



I.X. Atamirzayev

Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi globallashgan davrda migrantlarning huquqlarini himoya qilishga doir amaliy ishlar va bu orqali migrantlarning huquqiy ijtimoiylashuviga erishish bo'yicha masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: migrant, migratsiya, huquqiy ijtimoiylashuv, huquqiy ijtimoiylashuv agentlari, oila, huquqiy munosabat, hudud, globallashuv.

Bugun aholi migratsiyasi insoniyat sivilizatsiyasining o'zi kabi qadimiy hodisa. Hozirgi davrda migratsiya, asosan, ish qidirish bilan bog'liq. Mehnat migrantlari ish kuchi ortiqcha mamlakatdan ishchiga talab yuqori yurtga chiqib ketishadi.

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bundan ko'zlangan maqsad Migratsiya agentligi xodimlarining migratsiya huquqi va munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro va milliy migratsiyaviy-huquqiy normalar, migratsiya jarayonlarini ma'muriy-huquqiy tartibga solishning nazariy asoslari, zamonaviy bosqichdagi migratsiya sohasidagi davlat siyosatining mazmuni va asosiy yo'nalishlari yuzasidan bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

So'nggi o'n yilliklarda dunyo bo'ylab mehnat migrantlari soni oshib borishi tendensiyasi kuzatilmoqda. BMT ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda dunyo aholisining, taxminan, 3,6 foizi yoki 281 million kishidan iborat qismi yoxud har o'ttiz besh kishidan biri vatanini chet elda ishlash uchun tark etgan migrantlardan iborat. Migratsiyaning nazoratsiz va noqonuniy amalga oshishi ayrim mamlakatlarda ijtimoiy ahvol og'irlashuviga, gumanitar inqiroz yuzaga chiqishi ehtimoli bo'lsa-da, umuman, migratsiya jarayoni migrantni qabul qilgan va migrant kelib chiqqan mamlakat barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Migrantlar insoniyat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shib kelmoqda. Ular jahon iqtisodiyotida mutanosiblikni ta'minlashga xizmat qiladi, turli mamlakatlar o'rtasida yangi bilim, tajriba va malaka almashinuviga ko'maklashadi. Shuningdek, migrantlar tufayli turli xalqlar o'rtasida axborot va g'oya, madaniy qadriyat va ilmiy-innovatsion ayirboshlash ta'minlanadi.

Migrant huquqi buzilishi, jumladan, uni o'zboshimchalik bilan hibsga olish, qiynoqqa solish yoki muhojirga nisbatan boshqacha tarzda shafqatsiz muomala qilish, ekspluatatsiya, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqning rad etilishi holati, ko'pincha, muayyan mamlakatdagi kamsituvchi qonun va turli stereotiplar bilan bog'liq. Bu o'z navbatida migrantlar huquqini ta'minlashga e'tiborni kuchaytirishni taqozo qilmoqda. Bu esa migrantlarning huquqiy ijtimoiylashuvini talab etadi.

Huquqiy ijtimoiylashuv bo'yisha xorijiy tajribani tahlil qilish shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining yangi va zamonaviy yo'nalishlarini ishlab shiqishga, bu yo'nalishdagi dunyo amaliyotini qiyosiu-huquqiy tahlil yetishga, ularning ijobiy jihatlarini mamlakatimiz amaliyotiga tatbiq yetishga, milliy qonunshilikni boyitishga imkon yaratadi.

Huquqiy ijtimoiylashuv bo'yisha faqat alohida bir davlatga taalluqli amaliyot, o'ziga xos usul va uslub mavjud yemas. Ijtimoiylashuv umuminsoniy hayotiy jarayon bo'lib, muayyan bir hudud, millat, elat doirasi bilan chegaralanmaydi. Muayyan davlatdagi amaliyotni hudud jihatdan shunga yaqin bo'lgan boshqa mamlakatda ham ko'rish mumkin. Shuning uchun huquqiy ijtimoiylashuv to'g'risidagi g'oya va qarashlarni faqat davlatlar chegarasi bilan bog'lash mantiqan to'g'ri bo'lmasa kerak.

Huquqiy ijtimoiylashuv bo'yicha xorijiy tajribaga e'tibor qaratganda ko'proq milliy, etnik, hududiy jihatdan bir biriga uaqin mamlakatlarning umumiy amaliyotini qiyoslash maqsadga muvofiq. Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi bilan bog'liq xorijiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu o'rinda g'arb va sharq mamlakatlari o'rtasida tabiiy o'ziga xoslik mavjud. Ma'lumki, sharq va g'arb davlatlari amaliyotida hayotga, yashashga, turmush tarziga nisbatan bir biridan keskin farq qiluvchi qarashlarni kuzatish mumkin. Olimlarning e'tiroficha, sharqda hayot tarzi ommaviylik, jamoaviylik asosida shakllansa, g'arbda esa, individualizmga ko'p ye'tibor qaratiladi. Bu o'z-o'zidan huquqiy ijtimoiylashuvga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadigan muhit va omillar, ya'ni ijtimoiylashuv agentlariga ko'ra ham bir qator mamlakatlar amaliyotini qiyosiy tahlil yetish mumkin.

Dastlab, sharqiy mamlakatlar tajribasiga e'tibor qaratamiz. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, sharqda ota-ona, oila-a'zolari, qarindoshlar, umuman jamoa shaxs huquqiy ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadi"[1].

Masalan, J.Pia Je va R.Mertojlarning fikrisha, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi o'zaro bog'liq bo'lgan ikki yo'nalishda olib boriladi: moslashuv (ijtimoiy madaniy tajriba, madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbatan o'ziga xoslikka ega bo'lish)[2].

Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvi bo'yisha xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga turli mamlakatlardagi yoshlar huquqiy tarbiyasiga qaratilgan e'tibor, amaldagi qonunshilik, yuridik amaliyot o'ziga xos turlicha ta'sir ko'rsatadi. Undan tashqari, har bir davlat hududidagi o'ziga xoslik, hududiy-jug'rofiy joylashuv, iqlim, insonlarning yashash va turmush tarzi, bir biriga munosabatlari, an'analar, milliy qadriyatlar ham shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga yega[3].

Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga oid xorij tajribasi tahlili quyidagi yo'nalishlarni aniqlashga imkoniyat yaratdi: birinshidan, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuviga hududiy joylashuvning o'ziga xos ta'siri, misol: sharq va g'arb madaniyatidagi o'ziga xoslik; ikkinshidan, har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari, xalqning mentaliteti, urf-odat va marosimlari; uchinshidan, ijtimoiylashuv agentlarining ta'siri, xususan, ijtimoiy muhit, oila, ota-ona, ta'lim maskani va boshqalar; to'rtinchidan, shaxs huquqiy ijtimoiylashuviga globallashuv jarayonlarining ta'siri, internet, vositalari, zamonaviy texnologiyalar va h.k. ta'sir ko'rsatadi.

Shunday ekan migrantlarning huquqiy ijtimoiylashuvida qo'yidagi vazifalarga alohida e'tibor qaratish lozim

birinchi, xorijda ishlash istagida bo'lgan fuqarolarni siyosiy va huquqiy o'qitish tizimini tashkil etish;

ikkinchi, xorijda ishlamoqchi bo'lganlarni ishga tartibli joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish;

Migrantlar huquqini himoya qilish mexanizmini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar, jumladan, Milliy markaz qator chora-tadbirlar amalga oshirmoqda.

Birinchi, migrantlar huquqi bo'yicha ta'limni rivojlantirish yo'nalishida O'zbekiston Respublikasining inson huquqi sohasidagi Milliy ta'lim dasturi loyihasi ishlab chiqilib, tegishli "Yo'l xaritasi"da migrantlar huquqi bo'yicha davlat idoralari va tashkilotlari xodimlari uchun o'quv kurslari tashkil qilish, "Migrantlar huquqi" darsligi, o'quv va uslubiy qo'llanmalar chop etish vazifasi belgilandi.

Ikkinchi, migrantlar huquqi bo'yicha xalqaro shartnomalar to'plamini davlat tilida chop etish yuzasidan ish boshlangan, migratsiya huquqi bo'yicha risolalar nashr etilmoqda.

Uchinchi, migrantlar huquqi bo'yicha axborot-resurs ta'minoti takomillashtirish, inson huquqlari bo'yicha Milliy markazda ochilgan "Inson huquqlari uyi"da migrantlar huquqiga bag'ishlangan nashrlar yig'ilmoqda. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar

axborot-kutubxona markazlarida tashkil etilgan “Inson huquqi sohasidagi adabiyot burchaklari”dan migrantlar huquqi bo'yicha nashrlar joy oladi.

To'rtinchidan, migrantlar huquqi bo'yicha turli jihatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy, amaliy tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Beshinchidan, migrantlar huquqini ta'minlash bo'yicha xalqaro hamkorlik ko'lami kengaytirilmoqda. Xalqaro migratsiya tashkiloti bilan yaqin hamkorlik qilinib, ilg'or tajribani o'rganish maqsadida xorijiy tashriflar amalga oshirilmoqda.

Oltinchidan, xalqaro hamkorlikning asosiy maqsadlaridan biri sifatida migrantlarga yordam ko'rsatish, ularning huquqini himoya qilish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash va boshqalardir.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi bilan bog'liq tashkiliy, metodologik asoslarni yaratishda yuqoridagi omillar inobatga olinishi, yuridik amaliyot, amaldagi qonun ijodkorligi, qonunshilik bazasini tashkil yetishda bu masalalarga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Qosimova N.D. O'smirlar ijtimoiylashuvida ibrat ijtimoiy psixologik xususiyatlarining ahamiyati. Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2010. –B. 4.

2. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 86-bet.

3. Попов. М.Ю. Правовая социализация личности как ресурс становления социального порядка в российском обществе. Автореф. дисс... докт. юрид. наук. Ростов-на-Дону. 2006. – С. 12.